

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ ФАРМАЦЕВТИКА ИНСТИТУТИ

ИБН СИНО ЖАМОАТ ФОНДИ

**АБУ АЛИ ИБН СИНО ВА ЗАМОНАВИЙ ФАРМАЦЕВТИКАДА
ИННОВАЦИЯЛАР**

VIII ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ



**АБУ АЛИ ИБН СИНО И ИННОВАЦИИ
В СОВРЕМЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

VIII МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

Shuningdek, yuqoridagi izlanishlar natijasida antidepressant dori preparatlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan deyarli ishlab chiqarmasligi kuzatildi. Bu esa o'z navbatida iste'molchilar talabini to'la qondirish maqsadida bu qator preparatlarni ishlab chiqarilishini mahalliy lashtirish va amaliyotga tatbiq etish kerakligini bildiradi.

Xulosalar: Shundan kelib chiqib, xorijiy hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan antidepressant dori preparatlari bo'yicha assortiment tahlili olib borilganda mahalliy ishlab chiqarish korxonalari tomonidan dorivor o'simlik xom ashyolari asosida antidepressant preparatlarining mavjud emasligi, keyingi tadqiqotlarni olib borishda obyekt tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

“YUGELM-MAL” KAPSULALARINING YAROQLILIK MUDDATINI ANIQLASH

Radjapova N.Sh., Kariyeva Y.S.

Toshkent farmatsevtika instituti

Dolzarbli: Grek yong'og'i bargidan olingan quruq ekstrakt asosida “Yugelm-mal” kapsulalarining yaroqlilik muddati va saqlash shartlarini belgilash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Kapsula namunalari ikki xil: GOST 25250-88 bo'yicha polivinilxlorid plyonkasidan OST 64-074-91 bo'yicha kontur-uyali o'rami (qadoq №1) va TU 48-21-270-78 bo'yicha laklangan bosma alyuminiy folgadan OST 64-074-91 bo'yicha kontur-uyali o'ram (qadoq №2) qadoqqa qadoqlandi. Kapsula namunalari turg'unligi tabiiy saqlash usuli yordamida o'rganildi. Eksperimental usulda saqlashning birinchi yilida sifat ko'rsatkichlarini qayta nazorat qilish bo'yicha tadqiqotlar har 3 oyda, keyingi yillarda esa har 6 oyda amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi: Grek yong'ogi (*Juglans regia* L.) barglaridan olingan quruq ekstrakt asosida “Yugelm-mal” kapsulalarining yaroqlilik muddatini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish.

Usul va uslublar: Kapsulalar quyidagi qadoqlash materiallarida qadoqlangan holda saqlandi:

- GOST 25250-88 bo'yicha polivinilxlorid plyonkasidan OST 64-074-91 bo'yicha kontur-uyali o'rami (qadoq №1);
- TU 48-21-270-78 bo'yicha laklangan bosma alyuminiy folgadan OST 64-074-91 bo'yicha kontur-uyali o'ram (qadoq №2).

Natijalar: Eksperimental saqlashning har 3 oyida kapsulalarning barcha sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari qayta tekshirildi.

Kapsulalarning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini o'rganish natijalariga ko'ra, yuqorida

ko'rsatilgan ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Farmakopeyasi I jild va RF XIV Davlat Farmakopeyasi talablariga to'liq muvofiqligi aniqlandi.

Olingan natijalarga ko'ra, tahlil qilingan kapsulalar birinchi turdagi qadoq idishda 30 oylik kuzatish davomida tashqi ko'rinishini o'zgartirmagan. Kapsulalarning o'rtacha og'irligi 0,266-0,326 g gacha bo'lib, 0,307 - 0,321g gacha o'zgargan. Shu bilan birga, chetlanishlar 10% oshmadi.

Kapsulalar ichidagi massaning og'irligidagi chetlanish ham MH ko'rsatilgan me'yorlar ichida bo'ldi va og'ishlar 0,4% - 6,8% chegarasida o'zgardi.

30 oylik kuzatuv davomida kapsulalarning parchalanish ko'rsatkichi 13 daqiqa 45 soniyani tashkil qildi, ya'ni 20 daqiqa deb belgilangan me'yordan oshmadi.

Ikkinchi turdagi qadoqqa (TU 48-21-270-78 bo'yicha laklangan bosma alyuminiy folgadan OST 64-074-91 bo'yicha kontur-uyali o'ram) qadoqlangan kapsulalar uchun olingan natijalar birinchi qadoqdagi namunalarning ko'rsatkichlaridan katta farq qilmadi. Bunday holda, 30 oydan keyin biologik faol moddalar miqdori 0,76% tashkil etdi. Kapsulalar hamda inkapsulalangan massaning o'rtacha og'irligidan chetlanish, mos ravishda, 8,4% va 6,8% oshmadi. Tahlil qilinayotgan kapsulalarning parchalanish vaqti 14 daqiqa 15 soniyani tashkil qildi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, grek yong'og'i (*Juglans regia* L.) bargidan olingan quruq ekstrakt asosida ishlab chiqilgan kapsula uchun foydalanilgan qadoq turlarida saqlash muddatini 24 oy qilib belgilashga qaror qilindi, ya'ni “Yugelm-mal” kapsulalarining yaroqlilik muddati 2 yil deb belgilandi.

DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY FOR OBTAINING A PHYTOPASTE

Rasulova M.R., Shukhratulloeva M.A., Ziyamukhamedova M.M.

Tashkent Pharmaceutical Institute

Relevance: Periodontitis, an inflammatory disease of the mucous membrane and gum tissues, affects 75% of the global population. Therefore, the development of an application-based medicinal form using local raw materials is a significant issue in pharmaceutical technology.